

## ASOSIY VOSITALAR HISOBINI TAKOMILLASHTIRISH

Saidaliyeva Nozimaxon Ulug'bek qizi

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

Buxgalteriya hisobi yo'nalishi magistri

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14646652>

*Annotatsiya.* Mazkur maqolda asosiy vositalar hisobini takomillashtirish masalalariga bag'ishlangan. Bugungi kundagi iqtisodiy muhitda korxonalarining moliyaviy holatini to'g'ri aks ettirishda asosiy vositalar hisobining muhimligi ortib bormoqda. Tadqiqotning asosiy maqsadi – amaldagi hisob tizimini takomillashtirish orqali asosiy vositalarning hisobga olinishi va ulardan samarali foydalanishni ta'minlash, moliyaviy hisobotlarning ishonchlilagini oshirishga erishishdir.

**Kalit so'zlar:** moliyaviy hisobot, buxgalteriya hisobi, xalqaro standartlar, asosiy vosita, qayta baholash.

## СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ СЧЕТА ОСНОВНОГО ОБОРУДОВАНИЯ

*Аннотация.* Данная статья посвящена вопросам совершенствования учета основных средств. В современных экономических условиях возрастает значение учета основных средств для правильного отражения финансового положения предприятий. Основная цель исследования – обеспечить учет основных средств и их эффективное использование путем совершенствования действующей системы учета, добиться повышения достоверности финансовой отчетности.

**Ключевые слова:** финансовая отчетность, бухгалтерский учет, международные стандарты, основные средства, переоценка.

## IMPROVEMENT OF FIXED ASSETS ACCOUNTING

*Abstract.* This article is devoted to the issues of improving fixed assets accounting. In today's economic environment, the importance of fixed assets accounting in accurately reflecting the financial condition of enterprises is increasing. The main goal of the study is to ensure the effective accounting and use of fixed assets by improving the current accounting system, and to increase the reliability of financial statements.

**Keywords:** financial reporting, accounting, international standards, fixed assets, revaluation.

Har qanday korxona yoki tashkilotning moliyaviy holatini boshqarishda asosiy vositalar muhim ahamiyat kasb etadi. Asosiy vositalar ishlab chiqarish jarayonining uzviy qismi bo‘lib, ular mahsulot ishlab chiqarish, xizmat ko‘rsatish va boshqa xo‘jalik operatsiyalarini amalga oshirish uchun zarurdir. Shunday ekan, asosiy vositalarning to‘g‘ri hisobga olinishi, ulardan samarali foydalanishni ta‘minlash va boshqaruv qarorlarini qabul qilish jarayonida ularga oid ma’lumotlardan to‘g‘ri foydalanish bugungi kunda dolzARB masalalardan biri hisoblanadi.

Hozirgi iqtisodiy sharoitda korxonalar oldida asosiy vositalarni yangilash, ularni samarali boshqarish va ishlab chiqarish salohiyatini oshirish kabi vazifalar turibdi. Bu esa, o‘z navbatida, asosiy vositalar hisobi tizimini takomillashtirishni talab etadi. Amaliyatda asosiy vositalarni hisobga olishda yuzaga keladigan qiyinchiliklar va kamchiliklar korxonalar moliyaviy hisobotlarining ishonchliligi va aniq bo‘lishiga to‘sinqilik qiladi. Shu sababli, mazkur mavzuning dolzarbliги bevosa asosiy vositalar hisobi jarayonlarini takomillashtirish bilan bog‘liqdir.

Korxonalarda asosiy vositalar hisobi tizimini takomillashtirish bo‘yicha nazariy va amaliy asoslarni ishlab chiqish hamda ular yordamida hisob tizimining samaradorligini oshirishga qaratilgan takliflar va tavsiyalarni ishlab chiqishdir. Mazkur maqsadga erishish uchun quyidagi vazifalar belgilangan:

- asosiy vositalarning mohiyati va ularning iqtisodiy jarayondagi o‘rnini o‘rganish.
- asosiy vositalar hisobining xalqaro standartlar va milliy qonunchilik talablari bilan muvofiqligini tahlil qilish.
- amaliyatda mavjud asosiy vositalar hisobining holatini o‘rganish va aniqlangan muammolarni tahlil qilish.
- asosiy vositalar hisobi jarayonlarini avtomatlashtirish va raqamlashtirish bo‘yicha ilg‘or tajribalarni o‘rganish.
- asosiy vositalar hisobi tizimini takomillashtirishga qaratilgan uslubiy ko‘rsatmalar va tavsiyalar ishlab chiqish.

Ilmiy yangiligi asosiy vositalar hisobini takomillashtirish bo‘yicha ishlab chiqilgan uslubiy yondashuvlar va amaliy tavsiyalar bilan bog‘liq bo‘lib, ular korxonalarning moliyaviy boshqaruv tizimini yaxshilashga xizmat qiladi. Shu bilan birga, tadqiqot natijalari buxgalteriya hisobi va audit sohasida innovatsion yondashuvlarni joriy qilish orqali iqtisodiy samaradorlikni oshirish imkonini beradi. Shunday qilib, ushbu ishda asosiy vositalar hisobi tizimini takomillashtirish orqali korxonalarning moliyaviy barqarorligi va samaradorligini oshirishga qaratilgan ilmiy va amaliy masalalar yoritiladi.

Asosiy vositalar korxonaning moddiy-texnik bazasini shakllantiruvchi muhim resurslardir.

Ular ishlab chiqarish samaradorligini oshirish, mahsulot sifatini yaxshilash va korxonaning barqaror rivojlanishini ta'minlashda muhim ahamiyatga ega. Ushbu maqolada asosiy vositalar hisobini takomillashtirish muammolari, ahamiyati va yechimlariga e'tibor qaratiladi.

Asosiy vositalarni hisobga olishda e'tibor beriladigan yana bir masala bu ularning qaysi birlarini eskirish summasini ishlab chiqarilgan mahsulot tan-narxi tarkibiga kiritish yo'li bilan qoplanadi-yu, qaysi birlarini qiymati foyda hisobidan koplanishini aniqlab olishdir. Bu masalalar o'z navbatida asosiy vositalarni ta'mirlash va ularga texnik xizmat ko'rsatish bilan bog'lik xarajatlarni hisobga olishni to'g'ri aniqlash bilan ham bog'lik.

Demak, asosiy vositalarni hisobga olishda yuqoridaq aytib o'tilgan masa-lalar bilan bog'liq quyidagi ikkita muammoni hal qilib olish lozim:

- joriy hisobot davrida ular qiymatining qanday qismi hisobdan chiqariladi;
- ularning balansda ko'rsatilgan qiymatini qoplanish summasi qanday hisoblanadi.

Bu muammolarni xal qilish, albatta, bir qator savollarga to'g'ri javob topishni taqozo qiladi.

Bular jumlasiga asosan quyidagilarni kiritish mumkin:

- Asosiy vositalarning boshlang'ich qiymatini qanday aniqlash kerak?
- Asosiy vositalarning bir qismini xarajatlarga qanday olib borish kerak?
- Asosiy vositalarni ta'mirlash, texnik xizmat ko'rsatish va ulardan foydalanish bilan bog'liq xarajatlar hisobini qanday olib borish kerak?
- Hisobda asosiy vositalar va nomoddiy aktivlarning chiqib ketishini qanday ifodalash kerak?

Asosiy vositalarga eskirish hisoblashning asosiy vazifasi - uzoq muddatda foydalanadigan moddiy aktivlar qiymatini taxmin qilinayotgan xizmat muddati davomida qo'llaniladigan tizimli va ratsional yozuvlar asosida taqsimlashdir. Bu erda quyidagi muhim holatlarga alohida e'tibor berish lozim:

• barcha uzoq foydalaniladigan aktivlar (erdan tashqari) cheklangan ishlatish (xizmat) muddatiga ega bo'lib, ularning qiymati barcha ishlatilish muddati yillari davomida xarajatlarga taqsimlanishi kerak. Aktivlarning xizmat muddatini cheklanganligining asosiy sabablari ularning jismoniy va ma'naviy eskirishidir. Asosiy vositalar ko'pincha jismoniy eskirishga ulgur-masdan, ma'naviy eskirib qoladi. Buxgalterlar odatda jismoniy va ma'naviy eskirish o'rtasida farqni ajratmaydilar, chunki ularni asosiy vositalarning foydalanish muddati qiziqtridi;

- buxgalteriya hisobida qo'llaniladigan “eskirish” iborasida jismoniy eski-rish berilgan vaqt mobaynida ob'ektlar bozor qiymatining pasayishini emas, balki asosiy vositalarning qiymatini ularning foydali faoliyati vaqtida hisobdan chiqarish deb tushuniladi. Atama asosiy vositalarning qiymatini xarajatlarga doimiy ravishda olib borilishini aks ettirish uchun ishlatiladi;
- eskirish qiymatni baholash jarayoni hisoblanmaydi. Buxgalteriya yozuvlari tannarxni aniqlash tamoyillariga muvofik olib boriladi va shunday qilib, ular baho darajasini hisoblash indikatori bo'lib xizmat qila olmaydi. Agarda foydali bitim va bozor kon'yukturasining o'ziga xosligi natijasida bino yoki boshqa aktivning bahosi oshganda ham shunga qaramay amortizatsiya hisoblashni davom ettirish kerak, chunki bu baholashning emas, balkim avvalgi qilingan xarajatlarni taqsimlash natijasi hisoblanadi.

Asosiy vositalarning eskirish miqdorini hisoblashga bir qator omillar ta'sir ko'rsatadi.

Bular asosiy vositalarning:

- boshlang'ich qiymati;
- qoldiq qiymati (tugatish qiymati);
- eskirish hisoblanadigan qiymati;
- taxmin qilinayotgan foydalanish muddati.

Asosiy vositalarga eskirishni hisoblash turli usullar yordamida amalga oshirilishi mumkin.

Soliq Kodeksida asosiy vositalarga eskirish hisoblashning bir tekisda hisobdan chiqarish usuli tavsiya qilingan bo'lsa-da amaliyotda uning boshqa usullarini ham qo'llash mumkin.

Asosiy vositalar – uzoq muddat davomida foydalaniladigan, moddiy shakldagi aktivlardir.

Ular ishlab chiqarish vositalari, binolar, inshootlar, texnologik uskunalar va boshqalarni o'z ichiga oladi. To'g'ri hisob yuritish moliyaviy hisobotlarning aniqligini ta'minlaydi, soliq va moliyaviy rejalshtirish jarayonlarini samarali tashkil etishga yordam beradi.

Asosiy vositalar hisobining ahamiyati quyidagilarda namoyon bo'ladi:

1. Moliya boshqaruvi: Asosiy vositalar hisobini to'g'ri yuritish korxonaning haqiqiy moliyaviy holatini baholashga imkon beradi.
2. Davlat nazorati: Soliqlar va boshqa moliyaviy majburiyatlarni to'g'ri hisoblash imkoniyatini yaratadi.
3. Investitsiyalarni jalb qilish: To'g'ri va aniq hisob kitoblari potentsial investorlar uchun ishonch uyg'otadi.

Asosiy vositalar hisobini takomillashtirish uchun quyidagi chora-tadbirlar amalga oshirilishi lozim:

- Kompyuterlashtirilgan tizimlarni joriy etish zamonaviy buxgalteriya dasturlari, masalan, 1C: Buxgalteriya, SAP, Oracle kabi tizimlardan foydalanish hisob-kitoblarni avtomatlashtirish imkonini beradi. Bu esa ma'lumotlarni tezkor va aniq qayd etish uchun muhim ahamiyatga ega.
- Amortizatsiya usullarini optimallashtirish amortizatsiya jarayonini korxona faoliyatiga moslash orqali asosiy vositalar haqidagi ma'lumotlarning haqiqiyligini ta'minlash mumkin. Bu uchun xalqaro standartlarga muvofiq amortizatsiya usullari tanlanadi.
- Xodimlarni malakasini oshirish buxgalteriya va moliya bo'limi xodimlarini muntazam ravishda o'qitish va ularning malakasini oshirish orqali hisob-kitoblarning aniqligini ta'minlash mumkin.
- Inventarizatsiya jarayonlarini modernizatsiya qilish: Asosiy vositalarning real holatini baholash uchun muntazam inventarizatsiya o'tkazish zarur. Zamonaviy texnologiyalardan, masalan, QR-kod va RFID texnologiyalaridan foydalanish inventarizatsiya jarayonlarini tezkor va samarali amalga oshirish imkonini beradi.
- Normativ-huquqiy bazani modernizatsiya qilish: Asosiy vositalar hisobini tartibga soluvchi qonun va me'yoriy hujjatlarni zamonaviy xalqaro standartlarga moslashtirish muhimdir.

### Xulosa

Asosiy vositalar hisobini takomillashtirish korxonalarining moliyaviy samaradorligini oshirish, soliqlarni optimallashtirish va investitsion jozibadorlikni ta'minlash uchun zarurdir.

Ushbu yo'naliishda texnologiyalarni joriy etish, xodimlar malakasini oshirish va qonunchilik bazasini isloh qilish muhim ahamiyatga ega. Shu sababli, asosiy vositalar hisobining aniqligini ta'minlash korxonaning strategik maqsadlariga erishishdagi muhim omillardan biri hisoblanadi.

### REFERENCES

1. O'zbekiston Respublikasining "Buxgalteriya hisobi to'g'risida"gi qonuni. <https://lex.uz/acts/2931253>
2. O'zbekiston Respublikasining 5-sonli "Asosiy vositalar" BHMS Buxgalteriya hisobining milliy standarti. <https://www.mf.uz/>
3. Lixacheva V.E. Puti snijeniya zatrata avtotransportnogo predpriyatiya XLVI Studencheskaya mejdunarodnaya zaochnaya nauchno-prakticheskaya konferentsiya «Molodejnyu nauchnyu forum: ob'yestvennye i ekonomicheskie nauki». — M.: «MTsNO». 2017 g. №6(46).

4. Dragusin, M., Constantin, D. L., & Petrescu, R. M. (2010). Clustering in transition economies: The case of Romanian tourism industry, 20th Biennial International Congress Tourism and Hospitality Industry 2010 “New trends in Tourism and Hospitality Management” (pp. 287–301). Opatija, Croatia: Faculty of Tourism and Hospitality Management.
5. Kalonov M.B. Avtomobilъ transporti korxonalarida asosiy vositalar hisobini takomillashtirish. “Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar” ilmiy elektron jurnali. № 2, mart-aprelъ, 2019 yil
6. Tashnazarov S.N. Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida moliyaviy hisobotning nazariy va metodologik asoslarini takomillashtirish: iqtisod fan.dok... diss. avtoref. – T., 2019;